



iSpring Suite DASTURI TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHDA AMALIY JIHATLARI.

Xasanov Muxiddin Kamildjanovich,


Mardayev Nurmurod Gulmurodovich

IIV Surxondaryo akademik litsey o'qituvchilari

Annotatsiya: *iSpring Suite dasturi ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni joriy qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va raqamli ta'lim resurslarini yaratish jarayonini soddalashtiradi. Quyida ushbu dasturdan ta'lim jarayonida qanday samarali foydalanish mumkinligi, u orqali yaratilgan interaktiv metodlarning dolzarbligi va ularning ta'lim samaradorligini oshirishga qo'shgan hissasi haqida batafsil tushuntirib beriladi.*

Kalit so'zlar: *integrativ, kompyuter planshet, telefon, iSpring Suite, PowerPoint, intellektual tizim.*

iSpring Suite – bu PowerPoint asosidagi, oson va qulay ishlatiladigan dastur bo'lib, uni ta'lim jarayonida interaktiv taqdimotlar, testlar, viktorinalar va boshqa interfaol kontent yaratish uchun ishlatiladi. Raqamli o'quv resurslari yaratishda o'quv materiallarini o'qitish va o'rganish usullarini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim jarayonida aynan iSpring Suite ta'lim mazmunini qiziqarli va samarali taqdim etishda muhim vositalardan biridir.



Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – bu faqat bilim berish emas, balki bilimlarni amalda qo'llash, mustahkamlash va nazorat qilish imkonini beradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni faol o'qitishga jalb qiladi hamda o'rganayotgan mavzulariga qiziqish uyg'otadi va jarayonni samarali qiladi.¹

Yuqoridagi ma'lumotlarga binoan an'anaviy o'qitish metodlari hamda iSpring Suite yordamida interfaol metodlar o'quv jarayonida foydalanish nuqtayi nazaridan sezilarli farq qiladi. Quyida ularning har birining solishtirish asosida xususiyatlari hamda ta'lim jarayoniga qo'shadigan qiymatlari haqida batafsil ma'lumot berish mumkin.²

An'anaviy metodlar:	iSpring Suite
Ta'lim mazmunini yetkazish usuli	

¹ Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. Wiley.

² Khan, B. H. (2005). Managing e-Learning Strategies: Design, Delivery, Implementation and Evaluation. Idea Group Inc (IGI).



• O'qituvchi asosiy ma'lumot manbai bo'lib, darsni og'zaki bayon qiladi yoki yozma taqdimotdan foydalanadi. • O'quvchilar darsliklardan yoki yozilgan materiallardan foydalanib bilim oladilar, lekin aksariyat hollarda bir tomonlama o'qitish usuliga asoslangan bo'ladi. • O'quvchi dars jarayoniga kamroq jalb qilingan bo'lib, passiv rol o'ynaydi, ya'ni asosiy vazifasi ma'lumotni eshitish va qayta ishlashdir.	• iSpring Suite o'qituvchilarga video, audio, va grafikalar bilan boyitilgan taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Bu o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faolroq jalb qiladi. • Ta'lim mazmuni interaktiv slaydlar, simulyatsiyalar, testlar va viktorinalar yordamida yetkaziladi, bu esa o'quvchilarga mustaqil o'rganish va bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. • O'quvchilar qiziqarli va dinamik kontent bilan mashg'ul bo'lib, mavzuni chuqurroq o'zlashtiradilar.
O'quvchini jalb qilish va qiziqish o'yg'otish	
• Faoliyatlar kam bo'lib, o'quvchilar ko'pincha passiv ravishda darsni tinglaydilar va kam ishtirok etadilar. • O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqalar cheklangan va dars jarayoniga faol qatnashuv kam kuzatiladi.	• O'quvchilar interaktiv mashg'ulotlarga, savollarga javob berish yoki muammolarni yechish jarayoniga jalb qilinadi. • Video, animatsiya va interaktiv tugmalar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq o'rganishga rag'batlantiriladi.
Bilimlarni mustahkamlash va baholash	
• O'quvchilar bilan teskari aloqa asosan o'qituvchi tomonidan olib boriladi va o'quvchilar o'z	• Testlardan keyingi darhol javoblarni ko'rsatish va xatolarni tushuntirish orqali bilimlar mustahkamlanadi va



bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini tezda ko'ra olmaydilar. • Baholash ko'pincha sinfda yozma shaklda amalga oshiriladi, bu esa baholash jarayonini uzoqroq vaqt talab qiladigan qiladi.	o'quvchilar o'z xatolarini o'z vaqtida tuzatadilar. • O'qituvchilar uchun ham baholash jarayoni tezlashadi va natijalarni real vaqtda olish imkoniyati mavjud bo'ladi, bu esa individual yondashuvni ta'minlashga yordam beradi.
Interfaollik va raqamli texnologiyalardan foydalanish	
• An'anaviy usullar kamroq texnologik imkoniyatlarga ega va asosiy manbalar kitob, daftar va yozuvlardan iborat bo'ladi. • Interfaollik cheklangan bo'lib, ta'lim jarayoni ko'pincha og'zaki tushuntirish va yozma ishlarga asoslangan.	• iSpring Suite yordamida o'quvchilarni simulyatsiyalar, videolar va animatsiyalar orqali interaktiv o'quv jarayoniga jalb qilish mumkin. • Darslarni turli xil qurilmalarda (kompyuter, planshet, telefon) o'rganish imkoniyati mavjud. • iSpring Suite yordamida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishini oshiradi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yordam beradi.

Yuqoridagi tahlilni o'rgangan holda an'anaviy hamda interfaol metodlar ta'lim jarayonining ajralmas qismlari bo'lib, har ikkalasining ham o'ziga xos afzalliklari mavjud. iSpring Suite yordamida interfaol metodlardan foydalanish



o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish, bilimlarni mustahkamlash va darhol baholash imkoniyatini yaratadi.³ Shu bilan birga, iSpring Suite o'qituvchilar uchun dars tayyorlash va baholash jarayonini yengillashtiradi, o'quvchilarga esa mustaqil o'rganish imkonini beradi.

iSpring Suite dasturi o'quv jarayoniga kiritilgan interaktiv ta'lim metodlari o'qituvchilar va o'quvchilar uchun samarali hamkorlik muhitini shakllantirish bilan birga yangi texnologiyalar yordamida sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. Wiley.
2. Horton, W. (2011). E-Learning by Design. John Wiley & Sons.
3. iSpring Solutions, Inc. (2022). iSpring Suite User Guide. iSpring Solutions.

³ iSpring Solutions, Inc. (2022). iSpring Suite User Guide. iSpring Solutions.